

**QORAQALPOQ BAXSHICHILIK AN'ANALARI: OLIY TA'LIMDA ESTETIK
TARBIYANING YANGI IMKONIYATI****Karlibaeva Aziza Kenesbay qizi**

NDPI Musiqá talabasi.

Qarlibaeva Azada

Yunus Rajabiy nomidagi ÓZMMSI talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21126786>

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpoq baxshichilik an'analari va ularning oliy ta'limda estetik tarbiyani rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Baxshichilik san'atining badiiy-estetik ahamiyati doston ijrochiligi orqali talabalarda estetik did va milliy o'zlikni anglashni shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek baxshichilikni o'quv jarayoniga integratsiya qilishning zamonaviy metodlari va raqamli texnologiyalar asosidagi imkoniyatlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Baxshichilik, estetik tarbiya, oliy ta'lim, folklor, doston, milliy meros, raqamli texnologiya.

Аннотация. В статье рассматриваются каракалпакские традиции бахшичилик и их роль в развитии эстетического воспитания в высшем образовании. Анализируется художественно-эстетическая ценность искусства бахши возможности формирования у студентов эстетического вкуса и национального самосознания через исполнение дастанов.

Также освещаются современные методы интеграции бахшичилик в образовательный процесс и использование цифровых технологий.

Ключевые слова: Бахшичилик, эстетическое воспитание, высшее образование, фольклор, дастан, национальное наследие, цифровые технологии.

Annotation. This article examines the Karakalpak bakhshichilik traditions and their role in enhancing aesthetic education in higher education. It analyzes the artistic and aesthetic value of bakshi performance and its potential to develop students' aesthetic taste and national identity through epic storytelling. The study also highlights modern methods of integrating bakhshichilik into the educational process and the opportunities offered by digital technologies.

Keywords: Bakhshichilik aesthetic education higher education folklore epic cultural heritage digital technologies.

Kirish: PF-6000-son Farmon "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-may Madaniyat va san'atni jamiyatda kengroq qo'llash, moddiy texnik bazalarni mustahkamlashni belgilaydi. Mazkur farmon madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli choralarni belgilaydi.

Ushbu farmonda:

1. Milliy madaniyat, moddiy va nomoddiy merosni saqlash va targ'ib etishga e'tibor qaratilgan.
2. Folklor, havaskor san'at shakllari ommalashtirilishi va innovatsiyalar joriy qilinishi ko'zda tutilgan.
3. Madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga urg'u berilgan.[1]

Qoraqalpoq baxshichilik san'ati — xalqning og'zaki ijodiy merosiga tayangan holda shakllangan badiiy-estetik tizimdir. U doston, qo'shiq va rivoyatlar orqali insonning ichki dunyosini boyitadi, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Ayniqsa, Qirq qiz va Alpomish kabi dostonlar yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

Qoraqalpoq baxshichilik an'analari xalqning boy ma'naviy merosi sifatida nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy oliy ta'lim tizimida estetik tarbiyani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Uni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish orqali yosh avlodda milliy o'zlik, estetik did va ma'naviy barkamollikni shakllantirish mumkin.

Baxshichilik san'ati qoraqalpoq xalqning eng qadimiy og'izaki ijod shakli bo'lib, xalq dostonlari kuy va so'z san'ati uyg'unligida namoyon bo'ladi. Baxshi ijodida nafaqat badiiy estetik ifoda balki xalqning ma'naviy qadriyatlari urf-odatlar va milliy ruh ifodalanadi. Baxshichilik san'ati talabalarda go'zallikni his qilish estetik fikrlash badiiy didni rivojlantirish va milliy madaniyatga hurmat bilan qarash fazilatlarini shakllantiradi.

Dostonlarda aks etgan obrazlar musiqiy ohang va ifoda vositalari yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalaydi. Oliy ta'limda baxshichilik san'atidan foydalanish milliy meros asosida estetik va ma'naviy tarbiya berishning samarali yo'nalishidir. Universitetda baxshilar ishtirokidagi mahorat darslari folklor laboratoriyalari doston tahlili mashg'ulotlari video darslar estetik didni kuchaytiradi.

Qoraqalpoq baxshichilik an'analari 2019-yilda UNESCOning "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxati"ga kiritilgan bu san'at nafaqat milliy balki jahon miqyosida ham estetik va madaniy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Buning kunda oliy ta'limda baxshichilikni o'qitishda raqamli texnologiyalar multimedia vositalari audio video dostonlar va ijodiy ustaxonalar orqali talabalarining estetik tafakkuri va ijodiy fikrlashini rivojlantirish mumkin.[2]

Baxshichilik san'ati estetik tarbiya uchun boy manba bo'lib unda ijro mahorati, so'z san'ati musiqiy ohang obraz yaratish kabi elementlar mavjud. An'anaviy baxshichilik maktabi va ustoz shogirt xususiyati -bu oliy ta'lim muhitida talabalarga tajriba almashish, ijodiy loyihalar orqali estetik tarbiya imkoniyatini beradi.

Baxshichilik san'ati va estetik tarbiyaning maqsadi o'zaro chambarchas bog'liqdir. Har ikkisi ham yosh avlodni ma'naviy etuk, badiiy didli va milliy qadriyatlarga sodiq inson qilib tarbiyalashga qaratilgan. Shuning uchun baxshichilik an'alarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish estetik tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Ta'lim jarayonida baxshichilik an'analari integratsiyasi: videodarslar, sahnali chiqishlar, dostonlar tahlili musiqiy ijro mashg'ulotlari orqali estetik didni rivojlantirish mumkin.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida milliy musiqiy meros folklor orqali estetik tarbiyani mustahkamlash strategiyalari masalan festivallar tanlovlar orqali baxshilar va doston ijrochilari ishtiroki bilan talabalarining estetik tajribasini oshirilmoqda.[3]

Estetik tarbiyaning yangi istiqbollari qoraqalpoq baxshichilik an'analari oliy ta'limda quydagi yangi estetik imkoniyatlarni ochib beradi:

1. Milliy o'zlikni anglash orqali talabalarining estetik dunyo qarashi boyiydi.
2. San'at va texnologiyani uyg'unlashtirish estetik ta'limning zamonaviy shakllarini yaratadi.
3. Madaniy merosga tayanish orqali ijodiy, mustaqil fikrlaydigan badiiy saviyali shaxsni shakllantirish mumkin bo'ladi

Estetik tarbiya oliy talimda etno-estetik madaniyat shakllantirish orqali yangicha o'zgarishlarga imkon beradi. Masalan: talabalarda milliy madaniyat san'at an'analari bilan bog'lik bo'lgan estetik ongni rivijlantirish modeli bayon etilgan. Estetik tarbiyani o'qituvchilarda bo'lajak pedagoglarda rivojlantirish ya'ni estetik dunyo qarashni shakllantirish orqali pedagogik kompaniyentlarni tayyorlash muhimligi ta'kidlangan.

Talabalarda axloqiy va estetik kompetentlikni shakllantirish uchun integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya tizimlari ishlab chiqilmoqda. Estetik tarbiyaning metodikasi ham zamonaviy ta'lim tarbiya jarayonida, san'at musiqa madaniyat elementlari raqamli texnologiyalar orqali estetik his estetik nazar yaratish imkoniyatlari oshmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar estetik madaniy muhit bilan tez ta'sirga uchraydi shuning uchun oliy ta'limda estetik tarbiya orqali go'zallikni idrok etish estetik madaniyatni rivojlantirish juda zarur.

Estetik tarbiyada yangi imkoniyatlar va yo'nalishlar

1. Milliy madaniyatni ta'limga integratsiya qilish: Talabalarda san'at og'zaki ijod folklor elementlari orqali estetik didni rivojlantirish.

2. Interaktiv va raqamli texnologiyalarni qo'llash: Musiqa-san'at talimida video onlayn platforma virtual muhitlar orqali estetik tarbiyani takomillashtirish

3. Kreativ yondashuv: Talabalarga estetik muhitni yaratish ijodiy loyihalar bilan shug'ullanish imkoniyatini beradi.

4. Integratsiyalashgan talim yondashuvi: Estetik tarbiya faqat badiiy fanlarda emas barcha yo'nalishlarda texnika ijtimoiy fanlar pedagogika sohalarida qo'llanilishi mumkin.

5. Kompetentlik yondashuv: Talabani estetik va axloqiy kompetensiyasini shakllantirish, estetik tushuncha, did, munosabat rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar.

Baxshichilik san'ati va estetik tarbiyaning maqsadi o'zaro chambarchas bog'liqdir. Har ikkisi ham yosh avlodni ma'naviy etuk, badiiy didli va milliy qadriyatlarga sodiq inson qilib tarbiyalashga qaratilgan. Shuning uchun baxshichilik an'alarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish estetik tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Baxshichilik estetik tarbiyaning samarali vositasi hisoblanadi, chunki u:

Musiqa va so'z uyg'unligi orqali hissiy ta'sir kuchini oshiradi;

Qahramonlik obrazlari orqali ideal inson timsolini yaratadi;

Milliy qadriyat va an'analarni yoshlar ongiga singdiradi;

Talabalarda milliy o'zlik va madaniy merosga hurmat tuyg'usini kuchaytiradi.

Masalan, baxshi ijrosidagi dostonlarda mardlik, sadoqat, halollik kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Bu esa estetik tarbiyaning asosiy maqsadi — komil insonni shakllantirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiya — bu shaxsda go'zallikni his qilish, tushunish va qadrlash qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Uning maqsadi go'zallikni anglash — san'at va hayotdagi estetik qadriyatlarni tushunish.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq baxshichilik an'analari xalqning boy ma'naviy va madaniy merosi sifatida nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki oliy ta'lim tizimida estetik tarbiyani rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Baxshichilik san'ati orqali talabalarda go'zallikni his etish, badiiy did, estetik tafakkur, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlar shakllanadi. Dostonlarda aks etgan qahramonlik, sadoqat, vatanparvarlik va halollik g'oyalari yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, baxshichilikni zamonaviy pedagogik yondashuvlar, multimedia vositalari va raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayoniga integratsiya qilish estetik tarbiyaning samaradorligini yanada oshiradi. Bu esa talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil mushohada yuritishi va milliy madaniyatga sodiqligini mustahkamlaydi. Shu bois, qoraqalpoq baxshichilik an'alaridan oliy ta'limda keng foydalanish yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirish va milliy merosni asrab-avaylashning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi **PF-6000-son** Farmoni sohani tubdan isloh qilishda quyidagi asosiy vazifalarni belgilab bergan.
2. Berdimuratov M. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi. – Nukus.
3. Isaeva G. B. Qoraqalpoq baxshichiligi va jirov yo'nalishida vokal san'atini rivojlantirish prinsiplari.
4. Qurbanbaeva G. Oliy ta'lim tizimida estetik tarbiyaning pedagogik asoslari.
5. Sapparbaeva R., Haydarova N. Qoraqalpoq baxshichilik san'atining uzluksiz ta'limdagi ayrim masalalari.
6. Davletmuratova A., Haydarova N. Doston ijrochiligi san'atida qoraqalpoq baxshichilik maktabining ijro an'analari.
7. Allanov Q. Qoraqalpoq baxshichilik san'ati. – Nukus: Qoraqalpog'iston, 2012.